

ARG'UVON (CERCIS) TURKUMI VAKILLARINING DENDROLOGIK TAVSIFI

Umarov Bekzod Baxtiyorjon o'g'li¹, Isaqova Ozodaxon Numanovna²

¹ Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Dehqonchilik va o'rmon meliorasiyasi" kafedrası assistenti

² Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7225301>

Annotasiya: Ushbu maqolada Kanada arg'uvoni qaysi oilaga mansubligi, uning changlanishi gullari, shoxlari haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek uning qattiq sovuqqa ham bardosh berishi va issiqda ham o'z xususiyatini o'zgartirmasligi, baland relyef shakllarida o'sishi hamda qaysi materikda ko'p tarqalganligi haqida tajribadan olingan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Arg'uvon, o'sish davri, o'rmon maydonlari, urug'lari yoki qalamchalari, nektarga boy, oddiy arg'uvon, mimozalar oilasi.

Аннотация: В данной статье приведены научные сведения о том, к какому семейству относится сирень канадская, ее опыление цветками и ветвями, ее устойчивость к сильным холодам и не изменяет своих характеристик даже в жару, растет в рельефных формах и какие сведения о ее распространенности на материке определяется из опыта.

Ключевые слова: Пурпурник, вегетационный период, лесные массивы, семена или черенки, нектароносные, пурпурник обыкновенный, семейство мимозовых.

Annotation: In this article, scientific information is given about the family of the Canadian lavender, its pollination flowers, branches. Also, its ability to withstand severe cold and not change its characteristics even in heat, it grows in high relief forms, and on which continent it grows. Experimental data on the distribution of it are given.

Key words: Purple, growth period, forest areas, seeds or cuttings, rich in nectar, common purple, mimosa family.

Respublikamizda mustaqillik yillaridan o'rmon maydonlarimizni kengaytirish, aholi yashash joylari, bino va inshootlar atrofi, turli darajadagi yo'l atroflarini ko'klamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 maydagi PQ-2966 [1], PF-5041 [2] sonli «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil yetish to'g'risida» gi qaror va farmoniga muvofiq o'rmon ishlarining ko'p yillik istiqbolli strategiyasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan o'rmonlar va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda, ushbu tur ko'chatlarini yetkazib berish muhim ahamiyatga yega.

Dunyoda asosan Xitoy, Yaponiya, Yeron, Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiya va MDH davlatlarida aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishda, seleksion izlanishlar natijasida yangi navlar yaratish, daraxt turlari ko'kalamzorlashtirishda va ozuqa fondini ko'paytirishda foydalanish imkoniyatlari o'rganilib kelinmoqda, ularni urug'idan, vegetativ, payvandlash, qalamchadan va invitro usulida o'stirish usullari ishlab chiqilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, arg'uvon bo'yicha ilg'or texnologiyaga asoslangan ilmiy kuzatishlar olib borish, yangi tajriba ma'lumotlarini tahlil qilish, ishlab chiqarishga ilmiy asoslangan iqtisodiy jihatdan samarali tavsiyalar berish alohida ahamiyatga yega. Arg'uvon turkumi dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lgan turkumlardan biridir. Dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasi tarkibiga daraxt, buta va chala buta o'simliklar kiradi. Ularning belgisi quyidagilardan iborat: barglari murakkab pasimon tuzilgan bo'lib, yonbargchali, ketma-ket joylashadi. Gullari besh doirali, har xil tuzilgan, tugunchasi ustki, bir uyali. Mevasi dukkak bo'lib, odatda ikki pallaga ajraladi. Ildizida tugunak bakteriyalar bor, ular havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Dukkakdoshlar oilasi uchta: mimozalar, sezalpinlar va kapalakgullilar kenja oilalariga bo'linadi.

Mimozalar kenja (mimosoideae) oilasi vakillarining belgilari quyidagilardan iborat: guli to'g'ri, gulqo'rg'oni 4-5 a'zoli, changchisi ko'p bo'lib, ingichka uzun ipchalarda joylashadi. Bu kenja oila tarkibida daraxtlardan ipak akatsiya va boshqa turlar bor.

Sezalpinlar kenja (cayesalpinioideae) oilasi vakillarining guli noto'g'ri, gulqo'rg'oni 5 a'zoli, changchisi 10 ta bo'lib, erkin holda changlanadi. Oila tarkibida 100 dan ortiq turkum bor.

Shunday turkumlardan biri arg'uvon (*Cercis*) turkumidir. Turkumda 10 tagacha tur bor hisoblanadi:

Cercis canadensis L, *Cyercis chinensis* Bunge, *Cercis chingii* Chun, *Cercis chuniana* F.P.Metcalf, *Cercis gigantea* ined., *Cercis glabra* Pamp., *Cercis griffithii* Boiss., *Cercis occidentalis* Torr. yex A.Gray, *Cercis racyemosa* Oliv., *Cercis siliquastrum* L.

Bu turkumning vakillari daraxt bo'lib, barglari oddiy, keng, butun, o'yiqli yoki ikki bo'lak, uchta yoki ko'p tomirli bo'lib tuzilgan. Yon bargchalari tangachasimon bo'lib. tez to'kilib ketadi. Gullari pushti rangda. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, gullari yig'ilib, buyraksimon shingilcha hosil qiladi. Mevasi dukkak, . cho'zinchoq, yassi-yezik, ingichka, ikki pallali. Turkumning 3 ta turi bo'lib, ular

G'arbiy Yevropada, Osiyoda, Yaponiyada va Shimoliy Amerikaning mo'tadil iqlimli zonalarida Kanada arg'uvoni tarqalgan.



1-rasm Kanada arg'uvoni

Markaziy Osiyoda turkumning bitta turi Griffit arg'uvoni (*Cercis griffithii* Boiss.) tarqalgan. Bu daraxt o'simlik bo'lib balandligi 3-6 metr atrofida, novdasi silliq, qo'ng'ir rangda, barglari navbat bilan joylashadi, ular oddiy, yumaloq yoki buyraksimon bo'lib, uchi yumaloq yoki o'yiqlik, tubi yuraksimon, cheti tishchasiz, tuksiz, bo'yi 5-8 sm, eni 7—12 sm. Barg bandi 20—30 mm, 5-7 ta asosiy tomiri bor. Gullari binafsha rangda, to'pguli katta shingilcha hosil qiladi. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, guli nektarli. Mevasi uzui, yassi dukkak, yuqori choki qanotchali bo'ladi.

Yog'ochi qattiq, og'ir, o'zakli bo'lib, o'zagi yashil-sariq, tevaragi oq-pushti rangda. Bu daraxt urug'dan ko'payadi. Urug'i unib chiqish xususiyatini 2 yilgacha saqlaydi. Dekorativ daraxt sifatida Qrimda ko'p ekiladi. G'arbiy Tyanshanda va Pomir-Oloyda hamda Kopetdog'da yovvoyi holda tarqalgan. Sovuqdan qisman zararlanadi. Issiqqa, qurg'oqchilikka juda chidamli.

Bulardan tashqari oddiy arg'uvon (*Cercis siliquastrum* L.) ham ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida ko'plab ekiladi.



2-rasm Kanada arg'uvonining mevali shoxi.

Oddiy arg'uvon – *Cercis siliquastrum* L. bo'yi 10 metrgacha yetadigan daraxt, tanasi notekis, ko'pincha qiyshiq. Barglari yarim doira shaklida, butun yoki yuqorida biroz chuqurli, terili, uzunligi 5 – 8 sm, eni 7-12 sm, yalong'och yuqori qismi yashil rangli, pastki qismi zangori rangli. Gulchalari pushtirang to'q qizil rangli, uzunligi 1,8 – 2 sm, novdalarida dasta shaklida joylashgan, hidsiz. Barglari yozilmasdan mart – aprelda gullaydi. Mevasi jigarrang, dukkakli, butun qish davomida daraxtda qoladi. Nisbatan sekin o'sadi.

Qurg'oqchilikka juda chidamli o'simlik. Uning to'q – yashil barglari jazirama issiq oylarida ham o'zining ko'rinishini yaxshi saqlaydi.

Tuproqqa talabchan yemas. Quruq toshloq tuproqda, hatto ohakli tuproqda ham yaxshi o'sadi. Sovuqqa chidamli. Qisqa muddatli -18 -20 S sovuqqa chidaydi. Nektarga boy. Urug'lari yoki qalamchalarini parxish qilib ham ko'paytirish xususiyatiga yega.

Janubiy Yevropa va Sharqiy Osiyoda yovvoyi holda o'sadi. MDH da Markaziy Osiyodagi Tyanshan tog'larining g'arbiy qismida, Pomir – Oloy va Kopetdog'da o'sadi. Oq gulli *Cercis siliquastrum* L f alba shakli uchraydi.

Yuqori manzarali sifatlari – erta bahorda qizg'ish rangli gullaydi. Barglari to'q – yashil, parvarishga talabchan emas. Bu esa O'zbekistondagi qurg'oqchilik tumanlarida ham aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish uchun juda mos daraxt turi. Arg'uvonni sho'r tuproqlarda o'stirib sinab ko'rish zarur.

Arg'uvonni yakka – yakka hamda guruh shaklida chekkalarga ekish ham yaxshi natija beradi. Meliorativ maqsadlar uchun quruq toshloq qiyaliklarga ekish uchun mos keladi.

Kanada arg'uvoni *Cercis Canadensis* L. introduksiya qilingan tur bo'lib, yovvoyi holda Shimoliy Amerikada o'sadi. Bo'yi 12 m keladigan daraxt barglari keng oval yoki yuraksimon, yuqori qismi o'tmas, silliq. Oddiy arg'uvondan bo'yining balandligi va sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadi.

Kanada arg'uvonining oq gulli shakllari Cercis Canadensis L. f alba Rehd va Cercis Canadensis L. F plena Sudw ma'lum. Unda changchisining bir qismi gul bargga aylangan. Kanada arg'uvonini yakka – yakka va guruh holida O'zbekistonning aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirishda oddiy arg'uvon o'stiriladigan hududlarda o'stirish va foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PF-5041 sonli farmoni.
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi PQ-2966 sonli qarori.
3. Xonazarov A.A. O'rmonchilar uchun qo'llanma. T. 1999.
4. Do'saxmetov A.O., Xoshimov K.X. - Metodicheskiye ukazaniya po ozeleneniyu naselennix mest, Tashkent, 1993g.
5. Do'saxmetov A.O. Ko'kalamzorlashtirish. Ma'ruza matnlari, 2001.
6. Drevesniye porodi mira, t. 2. M.: Lesnaya promishlennost, 1982, s.
7. Drobov V. P. Drevesnaya i kustarnikovaya rastitelnost Tashkenskogo oazisa. - Byul. SAGU, №18,1935, s. 35.

Internet saytlari

1. www.uniquyegarden.ru
2. www.agropark.ru
3. <http://meteo.iiz/r^/2006/08/16Mmiat-tasmcyent.html>
4. <http://ru.wikipedia.org/wiki/>